



OLIV MARTABALI MEHMON SAMARQANDDA XALQIMIZNING BOY MADANIY MEROSI BILAN TANISHDI

Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov 23-aprel kuni tashrif bilan O‘zbekistonga keldi.



Tantanalı ravishda ikki mamlakat bayroqlari bilan bezatilgan Samarqand xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni davlatimiz rahbari kutib oldi.

Samarqand shahridagi tadbirlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov birgalikda Hazrati Xizr majmuasiga tashrif buyurib, Birinchi Prezidentimiz xotirasiga hurmat ko‘rsatdilar.

Qabrga gullar qo‘yildi. Qur‘on tilovat qilindi.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari va Turkman xalqining milliy yetakchisi birgalikda “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro turizm markazidagi “Boqiy shahar” tarixiy-etnografik majmuasi hududida tashkil etilgan madaniy tadbirlarda ishtirok etdilar.

Oliy martabali mehmon xalqimizning boy madaniy merosini aks ettiruvchi ko‘rgazmalar, hunarmandchilik va amaliy san‘at namunalari

bilan tanishdi. Raqs jamoalarining chiqishlaridan iborat madaniy dastur namoyish etildi.

Tashrif dasturiga muvofiq, ikki tomonlama uchrashuv o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

Muzokaralarda O‘zbekiston — Turkmaniston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqiladi.

O‘ZA

OLIV DARAJADA ERISHILGAN KELISHUVLARNI YANADA MUSTAHKAMLASH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-aprel kuni Samarqand shahrida amaliy tashrif bilan mamlakatimizga kelgan Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Suhbatda O‘zbekiston — Rossiya do‘stlik, keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan yanada

mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Barcha yo‘nalishlarda faol muloqotlar va sarmahsul almashinuvlar olib borilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi oshmoqda. Hududlar va yetakchi sanoat korxonalarining kooperatsiyasi kuchaymoqda. Madaniyat, san‘at, fan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, sport

va turizm sohalaridagi hamkorlik kengayib bormoqda.

Tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

VAQTNI IMKONIYATGA, IMKONIYATNI YUTUQQA, YUTUQNI TARAQQIYOT POYDEVORIGA AYLANTIRAYOTGAN SPORTCHILAR



Bugungi kunga kelib esa azm-u shijoatli yoshlarimizning xalqaro arenalardagi g‘alabali odimlarini yillar emas, balki oylar kesimida tahlil qilishga to‘g‘ri kelyapti. Masalan, hali nihoyasiga yetmagan aprelni olaylik. 20 kun

nari-berisida muzaffar sportchilarimiz 20 yilga tatigulik tarix yozdi, nazarimizda.

Xususan, yaqinda o‘smir futbolchilarimiz Saudiya Arabistoni maydonlarida bo‘lib o‘tgan nufuzli musobaqa — Osiyo kubogida

Yangi O‘zbekiston ruhi

O‘tgan yili Parijdagi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida qo‘lga kiritilgan tarixiy g‘alabalar sportsevar xalqimizni behad quvontirgani, millionlab vatanparvar yurtdoshlarimiz qalbini faxr-iftixorga to‘ldirgani ayni haqiqat. O‘shanda aksar katta avlod vakillarida o‘zbek sportidagi bunday katta natijalarni yana to‘rt yil kutamizmi, degan xavotir ham kuzatilgani bor gap. Zotan, bu holat mantiqan to‘g‘ri. Chunki sportga 30-40 yillik ishqibozligi, muxlisligi mobaynida bunaqa tarixiy zafarlar kam kuzatilgan.

mislsiz jasorat namunalarini ko‘rsatib, g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Bu g‘alaba O‘zbekiston U-17 terma jamoasining Osiyo kubogini nafaqat birorta mag‘lubiyatsiz qo‘lga kiritgani, balki final bahsi — mezbon

jamoaga qarshi ikki o‘yinchilik kam bo‘lib erishgan matonatli g‘alabasi tufayli ham tarix zarvaralaridan joy oladigan bo‘ldi.

▶ Davomi 3-betda

Yangicha yondashuvlar



VODIYLIKLAR BETONLASHTIRILGAN ARIQLARDAN ELEKTR ENERGIYASI OLMOQDA

Suv tiriklik, rizq-ro‘z, farovonlik manbai sifatida qadrlanadi. Ota-bobolarimiz undan maqsadli foydalanish, isrof va iflos qilmaslikka chorlagan. “Suvga tupurma, chiqindi tashlama, suv “ko‘zi”ni to‘asma” kabi pand-nasihatlar orqali uni asrash, tejash, maqsadli foydalanishga undagan. Ayniqsa, ariqlarning tozaligi, suvning bir maromda oqib turishiga alohida e‘tibor qaratgan.

Bir paytlar suv kuchi yordamida ulkan tegirmon toshini gir aylantirib, don-dun yanchish buyuk kashfiyot sifatida baholangan. Endi zamonaviy gidroinshootlar qurish, yashil elektr energiyasi olish imkoniyati yaratildi. Ana shu maqsadda kanallar, suv yo‘llari ta‘mirlanib, betonlashtirilyapti. Buning hisobiga ariqlardagi suv oqimi tezlashib, kichik GESlar qurish, elektr energiyasi olish usullari ommalashti. Mazkur chora ortiqcha mablag‘, ishchi kuchi va yer

osti boylıklarısız muqobil energiya olish imkonini beradi.

Prezidentimiz Andijon viloyatiga tashrif doirasida bu muhim masalaga alohida e‘tibor qaratib, izboskanlik tadbirkor tomonidan ishga tushirilgan, quvvati 3,2 megavattli kichik GES yiliga 8 million kilovatt-soat elektr energiyasi berayotgani, bu tuman aholisi iste‘molining 20 foizini qoplashini e‘tirof etdi. Bu bejiz emas, albatta.

▶ Davomi 2-betda



Boshlanishi 1-betda

Namunali loyiha viloyatning suv oqimi yuqori boʻlgan ariq va kanallarida joriy etilsa, 75 megavatt quvvatga ega kichik GESlar qurish imkoniyati vujudga keladi. Bu yil Andijon viloyatida quvvati 24 megavattli, keyingi yilda yana 20 megavattli — jami 763 ta kichik GES ishga tushirilishi hisobiga 38 ming xonadon uzluksiz elektr bilan ta'minlanib, viloyatning elektr importi 10 foiz qisqaradi.

Bundan 7-8 yil avval bunday istiqbolli loyihalar haqida oʻylash, gapirish, mulohaza, mushohada yuritish xomxayol edi. Mavjud resurslar faqat ekinzorlarni sugʻorishga xizmat qilgan. Endi bu boradagi qarashlar, fikrlar oʻzgardi. Suv oʻzanlari muqobil, arzon va sifatli elektr energiyasi manbasi sifatida xalq xoʻjaligi, aholi manfaatini yoʻlida xizmat qilayotgan muhim tarmoqqa aylandi. Hayotbaxsh islohotlar odamlar ogʻirini yengil, uzogʻini yaqin qilyapti.

Fargʻona tumanining chekka hududi boʻlgan Shohimardon qishlogʻidagi Koʻksuv soyida 2,2 megavattli va Yuqori Vodil qishlogʻida 430 kilovattli kichik GES barpo etilib, yaqin mahallalardagi aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan taʼminlab kelyapti.

Charxpalak koʻrinishidagi qurilma oʻziga xosligi bilan ajralib turadi. Hidroelektr stansiyasi suv, sathiga mos holda generatorni harakatlantirib, elektr energiyasi ishlab chiqarib beradi. Yaʼni suv miqdori kamaysa ham bir meʼyorda faoliyat yuritadi.

GES qurilishi hududlarga obodlik, odamlar koʻngliga yorugʻlik olib kirdi. Kichik GES yiliga 13 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Natijada yiliga 3,5 million kub metr tabiiy gaz sarfining oldini oladi.

Maʼlumotlarga koʻra, oʻtgan yili Shohimardon qishlogʻidagi 1100 fuqaro va 43 ulgurji isteʼmolchi tomonidan 9,8 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlatilgan. Isteʼmoldan ortgan yillik 3,2 million kilovatt-soat elektr energiyasi qoʻshni respublikaga eksport qilindi.

Kichik GES ishga tushirilgani iqtisodiy samara keltirish bilan birga, sayyohlik infratuzilmalarining rivojlanishiga ham xizmat qilyapti, — deydi “Shohimardon” mahalla fuqarolar yigʻini raisi Ikromjon Abduxoligov. — Bundan tashqari, yangi ish oʻrinlari ochilib, yoshlarning bandligi taʼminlangani ham

bizni quvontiradi. Qishlogʻimiz qoq oʻrtasidan oʻtgan suv asrlar davomida shovullab oqib turgan. Ammo undan maqsadli foydalanish, elektr energiyasi olish, odamlar koriga ishlatish uchun hech qanday loyiha amalga oshirilmagan. Endi hammasi mutlaqo boshqacha. Suvdan samarali foydalanish, tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash borasidagi islohotlar qishlogʻimizga yangi hayot, koʻtarinkilik olib keldi. Endi chiroq oʻchmaydi.

Yuqori Vodil mahallasidagi kichik GESda yiliga oʻrtacha 2,17 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarishi hisobiga 615 ming metr kub tabiiy gaz sarfining oldi olindi. Yangi tarmoq elektr taʼminoti ogʻir boʻlgan hudud aholisini uzluksiz elektr energiyasi bilan taʼminlashga xizmat qilmoqda.

Togʻlarning oʻynoqi jilgʻalari birlashib, sharqirab oqadigan soy va daryolarga aylanadi. Ularning kuchli oqimi esa yangi gidroinshootlar qurish uchun mustahkam asos boʻlib xizmat qilmoqda.

Quva tumanidagi Tolmozor qishlogʻi Karkidon suv omborining quyi qismida joylashgan. Suv ombori qishloq xoʻjaligi tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida 1967-yili qurib bitkazilgan boʻlib, unga suv Isfayramsoy va Janubiy Fargʻona kanalidan oqib kelib quyiladi. Inshootdagi toʻliq suv

Bu yerda soatiga 120 kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega 5 ta kichik gidroelektr stansiyasi qurilishi poyoniga yetdi. Mutaxassislar suv tarmoqlari chetini betonlash hisobiga suv oqimini yanada tezlashtirdi. Aytishlaricha, bir suv oqimi olti marta elektr energiyasi hosil qilish imkonini berar ekan. Yangi loyiha bir vaqtning oʻzida 250 dan ortiq xonadon va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarini arzon elektr energiyasi bilan taʼminlaydi.

Charxpalak koʻrinishidagi qurilma oʻziga xosligi bilan ajralib turadi. Hidroelektr stansiyasi suv sathiga mos holda generatorni harakatlantirib, elektr energiyasi ishlab chiqarib beradi. Yaʼni suv miqdori kamaysa ham bir meʼyorda faoliyat yuritadi.

Karkidon suv ombori hududidagi soylar, dam olish maskanlaridagi suv havzalarining imkoniyatini oʻrgangan holda 10 ta mikro GES qurish borasida ishlar davom ettirilyapti. Hozirga qadar kunlik quvvati 2400 kilovattli kichik GESlar qurilishi yakunlandi. Bu bir vaqtning oʻzida 480 ta xonadonni muqobil elektr energiyasi bilan taʼminlaydi. Bir yilda 216 ming kub metr tabiiy gazni tejashga xizmat qiladi. Mazkur miqdor tuman hududidan oqib oʻtgan boshqa soy va kanallarga nisbat qilinsa, kichik GESning katta imkoniyatini chamalab olish qiyin emas. Oddiy qilib aytganda, bir oqim boʻyicha yuqoridan pastga harakatlanib kelayotgan suv sarfidan qayta-qayta foydalanib, ekologik toza energiya olinadi.

Quva tumani hududidan oqib oʻtuvchi Janubiy Fargʻona kanalida charxpalak tipidagi mikro GES — “200 kilovatt Quva-1” loyihasi ishlab chiqilib, uning fundament ishlari yakunlandi, — deydi Fargʻona davlat texnika universiteti doktoranti Doniyorjon Botirov. — Mazkur loyiha orqali yiliga 43 ming 200 kilovatt-soat elektr energiyasi hosil qilinadi. Oltiariq tumani hududida esa Malayziya hukumati investitsiyasi hisobiga



Fargʻona tumanining chekka hududi boʻlgan Shohimardon qishlogʻidagi Koʻksuv soyida 2,2 megavattli va Yuqori Vodil qishlogʻida 430 kilovattli kichik GES barpo etilib, yaqin mahallalardagi aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan taʼminlab kelyapti. GES qurilishi hududlarga obodlik, odamlar koʻngliga yorugʻlik olib kirdi. Kichik GES yiliga 13 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Natijada yiliga 3,5 million kub metr tabiiy gaz sarfining oldini oladi.

quvvati 150 kilovatt-soat boʻlgan mikro GES qurilishi boshlandi.

Soy va kanallarda charxpalak koʻrinishidagi kichik gidroelektr stansiyalari qurish orqali muqobil elektr energiyasi olish tajribasi Fargʻona viloyatidagi boshqa shahar va tumanlarda ham ommalashyapti. Xususan, Yozyovon tumani hududidan oqib oʻtgan Katta Andijon, Katta Fargʻona kanallarining Xonobod irmogʻi hamda Yozyovonsoy tashlamasida quvvati 340 kilovattli 10 ta kichik GES qurilishi boʻyicha loyiha amalga oshirilyapti. Bu inshootlar qurilishi natijasida soatiga 340 kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bir oyda oʻrtacha 183 ming, bir yilda 2 million 203 ming kilovatt-soat qoʻshimcha elektr energiyasi olish imkoniyati vujudga keladi.

Fargʻona davlat texnika universiteti olimlari germaniyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda soy va kanallarga quvvati 3 kilovatt-dan 100 kilovatt-soatgacha boʻlgan mikro GESlarning yangi konstruksiyalarini loyihalash, tayyorlash, qurib oʻrnatish va tajriba-sinov oʻtkazish, tijoriylashtirish

Soy va kanallarda charxpalak koʻrinishidagi kichik gidroelektr stansiyalari qurish orqali muqobil elektr energiyasi olish tajribasi Fargʻona viloyatidagi boshqa shahar va tumanlarda ham ommalashyapti. Xususan, Yozyovon tumani hududidan oqib oʻtgan Katta Andijon, Katta Fargʻona kanallarining Xonobod irmogʻi hamda Yozyovonsoy tashlamasida quvvati 340 kilovattli 10 ta kichik GES qurilishi boʻyicha loyiha amalga oshirilyapti.

borasida amaliy ishlar qilinmoqda. “Texnopark” va “Mikro GESlarni loyihalash” markazi tashkil etilgan. Shu kunga qadar quvvati 50 kilovattgacha boʻlgan ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi ilk mikro GES Marhamat tumanidagi “Rohat” mahalla fuqarolar yigʻini hududida ishga tushirilib, 240 ta xonadon muqobil elektr energiyasi bilan taʼminlandi.

Viloyatimizda muqobil elektr energiyasi ishlab chiqarish orqali isteʼmolchilarning elektr energiyasiga ehtiyojini taʼminlash borasida katta imkoniyat bor, — deydi Fargʻona davlat

texnika universiteti professori, texnika fanlari doktori Sirojiddin Ergashev. — Bugun quvvati 3 kilovatt-dan 500 kilovattgacha boʻlgan yangi avlod turbinali mikro GESlari ishlab chiqarish yoʻliga qoʻyilmoqda. Birinchi bosqichda viloyatimiz hududidan oʻtgan Katta Fargʻona va Janubiy Fargʻona kanallari, Andijon kanali va tarmoqlariga (suv oqimining talab qilingan parametrlariga ega) oʻrtacha quvvati 50 kilovattli 230 ta mikro GES qurish mumkinligi aniqlandi. Ularning oʻrtacha yillik ish soati 8000 boʻlsa, ishlab chiqargan elektr energiyasi quvvati 92 million kilovatt soatni tashkil etadi. Bu viloyat boʻyicha bir yilda sarflanadigan elektr energiyasining ikki foizini iqtisod qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, Germaniyaning gidroagregat ishlab chiqaruvchi “WASSERKRAFT VOLK AG” hamda “NEXTGEN SOLUTIONS” konsalting kompaniyalari bilan hamkorlikda Quva va Fargʻona tumanlarida mikro GESlar va 200 kilovatt-soatgacha elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi yangi turbogenerator tipidagi gidroagregatlar tayyorlash borasida ishlayapmiz.

Olimlarning amaliy izlanishi tufayli muqobil elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi shamol agregatlari, quyosh panellari, quyosh issiqlik tizimlarining tajriba nusxalari yaratildi. Hozir kichik oqimli daryo va kanallarga charxpalak tipidagi gidroinshootlar yordamida elektr energiyasi olish boʻyicha sakkizta loyiha muvaffaqiyatli ishlab turibdi.

Suv yoʻqotilishini kamaytirish maqsadida kanallarni betonlash dasturi suv oqimini tezlashtirish hisobiga kichik GESlar qurish imkoniyatini yanada kengaytirmoqda.

Rasuljon KAMOLOV, “Yangi Oʻzbekiston” muxbri



GʻOZGʻONNING BUGUNGI QIYOFASI

TUPROGʻI HAM, TOSHI HAM, TARIXI HAM BEBAHO SHAHAR

Karim ota bundan bir necha yil oldin Gʻozgʻon shaharchasiga yaqinlarini koʻrgani kelgandi. Salomatligidagi muammolar tufayli bu yerga kelmaganiga ancha vaqt boʻlgandi. Samarqand shahridan singlisi tushgan kelmachaga borish soʻnggi vaqtlarda ogʻirlik qildi. Mana, jiyanalari endi farzandlarini uylantirish taraddudida. Oʻgʻli mashinada olib borib kelishini aytganida, yoʻl uzoq boʻlsa-da, Karim ota toʻyga borishga rozi boʻldi.

Otaxon bir necha yil oldin Gʻozgʻonga shahar maqomi berilganini eshitgan edi. Shaharga kirar ekan avval kelgan joylarini tanimadi.

— Ilgari faqat toshli uylar boʻlar edi. Hozir juda ham obod manzilga aylanibdi-ku, — dedi otaxon oʻgʻli hayratini yashirolmay.

— Albatta, ota, Gʻozgʻon shaharga aylangach, bu yerda prokuratura, ichki ishlar idoralari, markaziy poliklinika, adliya boʻlimi va davlat xizmatlari markazi hamda yangi taʼlim muassasalarining binosi qurib bitkazildi. Hozir koʻrganingiz shahar hokimligi binosi. Bu yerda ham katta qurilish va taʼmirlash ishlari bajarilyapti, — dedi oʻgʻli otasining soʻzlarini tasdiqlab.

Darhaqiqat, ayni paytda Gʻozgʻon shahriga kelgan kishi bu hududning bunyodkorlik markaziga aylanganiga guvoh boʻladi. Bugun shaharda bor-yoʻgʻi 4 ta mahalla borligini hamma ham bilavermasa kerak. Ammo hududning nomi tabiiy boyliklari va iqtisodiy salohiyati bilan mashhur.

Gʻozgʻon shahrida 1930-yillarda marmar konlarini faol oʻzlashtirishga kirishilgach, yashash manzili sifatida ham rivojlana boshlagan. 1975-yilda esa shaharcha maqomini olgan. Davlatimiz rahbari Navoiy viloyatiga 2016-yil noyabrda tashrif chogʻida Gʻozgʻonda marmar va granitga asoslangan qurilish materiallari sanoati bazasini tashkil etish, yuqori infratuzilmaga ega sanoat shahriga asos solish, hududni kompleks rivojlantirishning yaqin istiqboldagi rejasini ishlab chiqish gʻoyasini ilgari surgan edi. Shu asosda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining tegishli qarori qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-sentabrda “Navoiy viloyati tarkibida Gʻozgʻon shahar hokimligini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori asosida qilingan keng koʻlamli ishlar natijasida hudud boshqa shaharlardan qolishmaydigan infratuzilmaga ega boʻlmoqda.



Oʻn mingga yaqin odam yashaydigan kenja shahar katta imkoniyatga ega. Bugun hududdagi foydalanilayotgan 31 million metr kub marmar va 104,1 million metr kub granit konida kamida 150 yilga yetadigan xazira mavjudligi aniqlangan. Bundan tashqari, hali aniqlanmagan tabiiy boyliklar turi va hajmi oʻrganilsa, ushbu raqamlar salmogʻi yanada ortishi tabiiy.

Vazirlar Mahkamasining Gʻozgʻon shahrini 2019-2021-yillarda kompleks rivojlantirishga qaratilgan tegishli qarori doirasida hudud sanoati tubdan isloh qilinib, iqtisodiy imkoniyati yanada kengaydi. Dasturga muvofiq, ikki bosqichli jami 64 loyiha-dan iborat investitsiya rejalari majmui tasdiqlandi. Unga koʻra, marmar hamda granit qazib olish hajmi qariyb toʻrt marta, qayta ishlash hajmi esa besh barobar oshirilishi rejalashtirildi. Shu asosda tashkil etilgan sanoat maydonida 14 ta korxona tomonidan birinchi bosqichda 200 million dollar qiymatidagi investitsiya loyihasini ishga tushirishga kirishildi. Ayni vaqtda hududda marmar va granit qazib olish hamda ularni qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan yirik korxonalar faoliyat yuritmoqda.

— Marmar va granit qazib olib, qayta ishlayapmiz, — deydi hindistonlik tadbirkor Sunil Datt. — Gʻozgʻon marmari Hindistonda ham juda mashhur. Bu qazilmalar takrorlanmas rangi bilan ajralib

turadi. Unga ishlov berish ham oson. Ochigʻi, Oʻzbekistonda biznes yuritish biz uchun juda qulay. Qolaversa, xorijlik ishbilamonlar yurtimizda juda hurmat qilinadi. Bugun bu yerda 20 ga yaqin mahalliy ishchining bandligi taʼminlangan. Ishlab chiqarilayotgan marmar va granit mahsulotlari asosan, xorijiy mamlakatlarga eksport qilinmoqda. Gʻozgʻon marmari sovuq hamda issiqqa chidamli, yuz yilgacha sifatini yoʻqotmaydi. Shu sababli, xorijda juda xaridorgir.

Ushbu yirik loyihalarni amalga oshirish orqali hududda 10 mingga ish oʻrni ochish belgilangan. Bugun shahar aholisi 9500 dan ziyod ekanini inobatga olsak, Gʻozgʻon shahri yaqin kelajakda boshqa hududlardan ham mehnat resurslarini jalb etuvchi yirik sanoat markaziga aylanadi.

— Gʻozgʻon shahrida konchilik bilan birga xizmat koʻrsatish va chorvachilik sohalarni ham rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda, — deydi Gʻozgʻon shahri hokimi oʻrinbosari Ruslan Shodiyev. — Bugun yirik korxonalarni tashkil etish boʻyicha xorijiy davlatlar tadbirkorlari bilan faol hamkorlik yoʻliga qoʻyilgan. Shaharda qulay infratuzilma yaratish maqsadida bunyodkorlik va qurilish ishlari davom ettirilmoqda. Har kuni yangi binolar qad rostlamoqda.

Shuningdek, shaharda kon sanoati korxonalarini rivojlantirish bilan birga xotin-qizlarning ish bilan bandligini taʼminlashga ham katta eʼtibor qaratilmoqda. Shu



maqsadda yaqinda 100 oʻrinli tikuvchilik fabrikasi qurilib, foydalanishga topshirildi. Ayni paytgacha korxonadan 550 ming dollarlik mahsulot eksportga chiqarildi.

Yoshligidan tikuvchilikka qiziqqan Munavvar Shodiyevaning orzusi ushbu korxona ishga tushishi ortidan ushaldi. U shu vaqtda qadar uyida buyurtma asosida turli kiyim-kechak va buyumlar tikib, daromad olgan va roʻzgʻoriga qarashib kelgan. Endi esa doimiy ish joyi va daromadga ega boʻldi. Munavvar kabi yana yuzdan ziyod xotin-qiz ayni vaqtda ushbu korxonada ishlayapti.

— Mahsulotlarimiz asosan, eksportga yoʻnaltiriladi, — deydi “Premier” korxonasi ish yurituvchisi Gulmira Hojiyeva. — Korxonamizda bolalar va kattalar uchun maxsus kiyimlar ishlab chiqariladi. Ishchi-xodimlarimizning ishlashi, ovqatlanishi va qatnashi uchun korxona tomonidan barcha sharoit yaratib berilgan. Ayni vaqtda yana bir filialimiz ish boshladi. U yerda ham 80 xotin-qizning bandligi taʼminlandi. Kelgusida korxonamiz filiallarini koʻpaytirib, yangi ish oʻrinlarini ochib, ishlab chiqarish quvvatini oshirish harakatidamiz.

Bugun yurtimizning kenja shahri boʻlgan Gʻozgʻon har jihatdan rivojlanmoqda. Shahardagi mahallalar obod boʻlib, bunyodkorlik jarayonida hudud tarixi va madaniyatiga ham alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu zaminning tuprogʻi ham, toshi ham, tarixi ham bebafo. Ulardan samarali foydalanish hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil boʻlmoqda.

Gʻolib ABDUSALOMOV, “Yangi Oʻzbekiston” muxbri



Sherzod Qoraboyev olgan suratlari.



VAQTNI IMKONIYATGA,

IMKONIYATNI YUTUQQA, YUTUQNI TARAQQIYOT POYDEVORIGA

Boshlanishi 1-betda

Yoki Saudiya Arabistonida o'tkazilgan yana bir nufuzli sport musobaqasi — 18 yoshgacha bo'lgan sportchilar o'rtasidagi yengil atletika bo'yicha Osiyo chempionatini olaylik. Qit'a birinchiligida yurtdoshlarimiz 3 ta oltin, 5 ta kumush va 4 ta bronza, jami 12 ta medalni qo'lga kiritib, o'z tarixida birinchi marta umumjamoa hisobida ikkinchi o'rinni egalladi.

Albatta, mamlakatimizda yengil atletikani rivojlantirish, yurtimizning ushbu sport turi bo'yicha xalqaro nufuzini oshirishda yoshlar, shu jumladan, xotin-qizlar, faol va fidoyi yigit-qizlarning o'rni beqiyos.

O'tgan yili Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida mamlakatimiz delegatsiyasi tarkibidagi ayol sportchilardan 3 nafari oltin, 8 nafari kumush va yana 3 nafari bronza medalni qo'lga kiritib, yurtimizning sport tarixida yangi sahifa ochdi. Ushbu natijalarni "Los-Anjeles — 2028" Olimpiadasida yangilash, xususan, "sport qirolichasi" hisoblangan yengil atletikada yanada ko'proq medallarni qo'lga kiritish uchun bugun barcha imkoniyatlar ishga solinib, hozirdan puxta tayyorgarlik ko'rilmog'chi.

Gap sportimizning aprelidagi yutuqlari haqida borar ekan, shu o'rinda yana bir shonli g'alabani e'tirof etib o'tish kerak. 2018-yilda tashkil etilgan O'zbekiston xokkey federatsiyasi qisqa vaqtda ulkan natijalarni qo'lga kiritdi. Xokkey bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi xalqaro maydonda ajoyib natija ko'rsatdi. Armanistonda o'tkazilgan jahon chempionatida xokkeychilarimiz o'z divizionida g'olib bo'lib, kelgusi mavsumda uchinchi divizionda qatnashish huquqini qo'lga kiritdi. Bundan oldin, olimpirog'i, mart oyida Tailandda 18 yoshgacha bo'lgan xokkeychilar o'rtasidagi jahon chempionatida ham terma jamoamiz g'alaba qozongan edi.

Ayni paytda O'zbekistonda to'rtta bolalar va o'smirlar xokkey maktabi faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan uchitasi — "Humo", "Binokor" va "Snejniy Bars" Toshkent shahrida



G'ALABALI ODIMLARIMIZ HECH QACHON TO'XTAMAYDI

Eldor POYONOV,
Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi yengil atletika bo'limi murabbiyi:

— Avvallari ham yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishga qaysidir ma'noda e'tibor bor edi. Ya'ni ushbu yo'nalishga mablag' ajratilib, ko'p hududlarda sport majmualari barpo etilgandi. Shunga qaramay, samaradorlik nuqtayi nazaridan natijalarimiz juda sust edi. Ayniqsa, jamoaviy sport o'yinlari, olimpiya sport turlarida oldinga siljish qoniqarli darajada emasdi.

Murabbiy sifatida buning eng asosiy sababi, birinchi navbatda, seleksiya ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmaganida deb bilaman. Birgina seleksiya ishlardagi no'noqligimiz ta'sirida ko'plab iqtidorli yoshlar nazardan chetda qolib ketdi.

Keyingi yillarda sport sohasida ham yangi davr boshlandi. Xususan, targ'ibot-tashviqot kengaydi, har bir hududda seleksionerlar harakati yo'lga qo'yildi. Natijada eng chekka manzillardagi mahoratlil o'g'il-qizlar saralab olinib, ularning boshqalar ilg'amagan yashirin qobiliyati yuzaga chiqarila boshlandi. Buni men amalda juda ko'p kuzatayman.

Bundan to'rt-besh yil oldin seleksiya ishlari rejasiga ko'ra, Yakkabog' tumanining olis tog' etagidagi maktabda yengil atletika sport turidan kichik musobaqa tashkil etadigan bo'ldik. Shunda boshqa murabbiylar qatori menda ham: "Bu hududda yengil atletikaga qiziquvchi yoshlar



bo'lmasa kerak", degan xavotir bor edi. Sababi, maktab balandlikda joylashgan, sport zali ham yo'q. Bittagina futbol o'yingohi mavjud bo'lib, to'pni sal qattiqroq tepsangiz, soylikka tushib ketadi. Shunday bo'lsa-da, musobaqa o'tkazishga ahd qilдик.

Yetarli sharoit bo'lmasa-da, maktab stadionida imkon darajasida bellashuvlarni boshlab yubordik. Bir ozdan so'ng o'quvchilarning harakatlarini ko'rib, hayratda qoldik. To'g'ri, qoidalarini bilmasa-da, lekin ularning shunchalik tez yugurishi, balandlikka sakrashini ko'rib, xavotirimizdan asar ham qolmadi. Men asosan, yadro, bosqon oqlotirish bo'yicha saralash o'tkazgandim. Qishloq bolalari hattoki bir

yildan beri shug'ullanib yurgan shogirdlarimdan ortiq vazifalarni bajarganini ko'rib qoyil qoldim.

Shundan so'ng har bir murabbiy ikki-uch yoshni saralab, o'zimizga shogirdlikka oldik. O'sha paytda endigina sakkizinchi sinfga o'tgan Shahribonu Zaripovani markazimizga yetaklab kelganimda, bosqon oqlotirish haqida tushunchasi bo'lmasa-da, iqtidorli ekani sezilib turardi. Uning chaqqon harakatlari, faqat g'alabaga intilishi meni qiziqtirgandi.

Mashg'ulotlarni boshlab yubordik. Adashmagan ekanman, asta-sekin talanti yuzaga chiqa boshladi. Hozirga qadar to'rt karra O'zbekiston chempioni bo'ldi. Mamlakatimiz terma jamoasi a'zolisiga qabul qilinib, xalqaro sport maydonlarida yurtimiz sharafini himoya qilishni boshladi.

Ya'qinda Saudiya Arabistonida o'tkazilgan 18 yoshgacha bo'lgan sportchilar o'rtasida yengil atletika bo'yicha Osiyo chempionatida ham ishtirok etib, bosqon oqlotirishda 56,47 natija bilan bronza medalga sazovor bo'ldi. Oddiy qishloq qizining bunday natijalarga erishishi hech kimning xayoliga ham kelmaganidi.

Shahribonuning bu bilan to'xtab qolish niyati yo'q. Asosiy maqsadimiz — kelgusi yil Osiyo o'yinlarida ishtirok etib, oltin medal olish, navbatdagi Olimpiya o'yinlarida bayrog'imizni baland ko'tarish.

Shahribonu bilan bog'liq tajribamdan kelib chiqib ishonch bilan ayta olamanki, yurtimizda iqtidorlilarga keng yo'l ochilgan ekan, g'alabali odimlar hech qachon to'xtamaydi.



YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI YUKSAK MARRALARNI ZABT ETISHGA QODIR

Bahodir MAXSITOV,
O'zbekiston sport tashkilotlari faxriylari kengashi raisi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi:

— Bugungi kunga kelib, sport yangi O'zbekiston davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda sohani izchil rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar bugun sportning ommaviyligini ta'minlash barobarida dunyo arenalarida ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Eng muhimi, bu yutuqlar ko'lami kengayib bormog'chi.

Jismoniy tarbiya va sportni ommaviylashtirish bo'yicha aniq dasturlar amaliyotga tatbiq etilayotgani sport bilan shug'ullanuvchilar sonini keskin oshirdi. Ayni paytda markazlardan tortib, eng chekka qishloqlarda ham barpo etilgan zamonaviy sport inshootlari, sog'lomlashtirish maydonchalariga nazar solsangiz, yoshlar bilan to'raligini ko'rasiz.

Hududlarda sport maktablari sonini ko'paytirish, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi loyiha va dasturlarni hayotga tatbiq etish masalalari davlatimizning alohida e'tiborida. Maqsad — jismoniy tarbiya va sport

bilan muntazam shug'ullanadiganlar sonini ko'paytirish, aholining jismoniy faolligini oshirish, O'zbekiston terma jamoalarining Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari, jahon va qit'a chempionatlarida muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlash. Murabbiylarni tayyorlash, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish ham ustuvor vazifalardan sanaladi.

Bu maqsadlar "O'zbekiston — 2030" strategiyasida o'z ifodasini topgan. Unda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish, ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish orqali yoshlar qamrovini 8 milliondan oshirish, sport bilan shug'ullanishga jalb qilingan aholi ulushini 36 foizga yetkazish belgilangan.

Shu bilan birga, kamida 5 mingta mahallada sport maydonchalarini tashkil etish, sport-ta'lim muassasalarida muntazam shug'ullanuvchi yoshlar sonini 1 million nafarga, sport sohasida oliy ma'lumotli xodimlar ulushini 85 foizga yetkazish ustuvor vazifalar qatoriga kiradi.

So'nggi to'rt yilda budjetdan sportga ajratilayotgan mablag' 1,5 trillion so'mdan 3 trillion so'mga oshdi. Murabbiylarning o'rta maoshi 2 barobar ko'paydi. 100

“ So'nggi to'rt yilda budjetdan sportga ajratilayotgan mablag' 1,5 trillion so'mdan 3 trillion so'mga oshdi. Murabbiylarning o'rta maoshi 2 barobar ko'paydi. 100 dan ortiq yirik sport inshooti qurildi, 70 ga yaqini rekonstruksiya qilindi. Sportchilarimiz erishayotgan olamshumul yutuqlar islohotlarimizning yorqin natijalari hisoblanadi.



Prezidentimiz bu borada qator tashabbuslarni ilgari surdi. Avvalo, olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirish, seleksiya tizimini yaxshilash maqsadida Olimpiya qo'mitasining hududiy bo'limlari tashkil etiladigan bo'ldi. Ular har bir federatsiya bilan birga Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik davri bo'yicha strategiya ishlab chiqadi. Buning uchun zarur sharoit va infratuzilimga 300 milliard so'm yo'naltiriladi.

Yig'ilishda yana bir muhim masalaga e'tibor qaratildi. Bu iqtidorli sportchilarni topish, saralash va tayyorlash jarayoniga raqamlashtirishni keng joriy qilishdir. Bu, o'z navbatida, qobiliyatli yoshlarni yuzaga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi.

Biz yaqin-yaqingacha bokschilarimiz bilan maqtanardik, milliy kurashimizdan faxrlanardik, futbolimizni yaxshi derdik. Sportning boshqa turlari haqida gap ketganida esa mum tishlardik. Nega? Chunki har qanday sport turi bo'yicha iqtidorlar aniqlanadigan, charxlanadigan, professional darajaga yo'naltiriladigan payt — yoshlik chog'imizda sport bilan shug'ullanishga e'tibor ham, sharoit ham yetarli bo'lmagan. Qanchadan qancha iqtidorlar bu davmi ko'chada tentirash, dalada paxta terish bilan o'tkazdi.

Sharoit, e'tibor bo'lsa, natija ham bo'lishi bugun yana bir bor o'z isbotini topdi. Demoqchimanki, sportni yanada rivojlantirish borasidagi keng qamrovli islohotlar bardavom ekan, kelgusidagi Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo o'yinlari hamda jahon chempionatlarida bundan-da yuksak natijalarga erishavermiz. Mana shunday navqiron, azmu shijoatli yoshlarimiz nufuzli xalqaro sport musobaqalarida munosib ishtirok etib, O'zbekiston nomini dunyoga tanitishda, yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarishda davom etishi shubhasiz.

XOKKEY BO'YICHA BIZDAGI SHAROIT KO'PCHILIK XORIJLIK MUTAXASSISLARNING HAVASINI KELITIRADI

Alisher AZIMOV,
"Binokor" xokkey klubi murabbiyi:

— Ilk marta xokkey maydoniga kirib borganimda yetti yoshda edim. Bugun ellik yetti yoshdaman. Mana, ellik yildirki, shu sport turi ichidaman.

Ilgari yurtimizda xokkey, o'sha davr nuqtayi nazaridan olib qaraganda, yaxshi rivojlangandi. Bir qancha jamoalarimiz bor edi. Turli musobaqalar, xalqaro turnirlarda munosib ishtirok etib, faxrli o'rinni qo'lga kiritib kelardik. Lekin oradan vaqt o'tib xokkey e'tibordan qoldi. Jamoalar ham tarqatib yuborildi. O'zim bu sport turini yaxshi ko'rganim bois, xorijdagi klubga borib, ularga qo'shilishga majbur bo'lganman. Mamlakatimizda ham xokkey qayta tiklanar, degan umidda ancha vaqtgacha o'sha yerda o'ynadim. Ochig'i, bu kunlarni ko'p kuttidik.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan xokkey bugun yana qayta tiklandi. Kattagina, zamon talablariga mos sport arenas qid rostladi. Federatsiya tashkil etildi. Bundan biz, murabbiylar mamnun bo'lib, yoshlarni ushbu sport turiga o'rgata boshladik. Harakatlarimiz samarasini berib, qisqa fursatda xokkey maydonlarida unutilgan jamoalarimiz nomi baralla aytila boshlandi.

Bugun yurtimizda aynan xokkey bilan shug'ullanish uchun yaratilgan sharoitlar ko'pchilik mutaxassislarning



havasini keltiradi. Bu imkoniyatlar, albatta, sportchini faqat oldinga undashi aniq.

Ya'qinda Armanistonda o'tkazilgan jahon chempionatida milliy terma jamoamiz munosib ishtirok etib, 4-diviziondagi tarixiy g'alabasi evaziga 2026-yilda turmuring 3-divizioni "B" guruhida o'ynash huquqini qo'lga kiritdi. Chempionatni kuzatib borarkanman, jamoamiz ancha faol ishtirok etganiga guvoh bo'ldim. Jumladan, Kuvayt, Eron, Indoneziya vakillari ustidan ishonchli g'alabaga erishdi. Umuman olganda, yigitlarimiz musobaqa davomida raqiblar darvozisiga 79 ta shayba kiritib, eng yaxshi jamoa sifatida e'tirof etildi.

Mart oyida Tailandda 18 yoshgacha bo'lgan sportchilar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida ham jamoamiz g'oliblikni qo'lga kiritgandi. Bunda yoshlarimiz nafaqat oltin medallarga egalik qildi, balki yuqori toifaga chiqishning uddasidan ham chiqa oldi.

Asosiysi, ushbu sportga qaratilgan e'tibor tez orada natijasini ko'rsata boshladi. Fikrimcha, kelgusida yurtimizda boshqa sport turlari qatori xokkey ham yanada ommalasadi. Buning ta'sirida sog'lom turmush tarziga amal qiluvchilar ko'lami kengayib, muz ustida bellashadigan yoshlarimiz yanada ko'payadi.

YANGI O'ZBEKISTON

www.yuz.uz

HAR BIR QADAMIMIZ — OLAM YASHILLIGI UCHUN

Ekologiya bilan bog'liq muammolar bugungi kunda jahonning barcha mintaqalarida sezilarli darajada ta'sir ko'rsatayotir. Ayniqsa, iqlim o'zgarishi, havo va suv ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, qazilma boyliklardan me'yorsiz foydalanish, global isish, tabiiy ofat ko'payishi, atrof-muhit va aholi salomatligi masalalari allaqachon yechimini kutayotgan muammolarga aylanib ulgurgan.

Islahot odimlari

Joriy yilgi davlat dasturidan mamlakatimizning global hamjamiyat oldidagi majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg'un "yashil transformatsiya" sini amalga oshirish, ularning raqobatbardoshligi va resurs tejamlorligini ta'minlash, iqlim o'zgarishiga moslashish va oqibatlarini yumshatish, shuningdek, aholining yashash sifatini yaxshilash va iqtisodiy o'sishning yangi "yashil rivojlanish" modeliga o'tish bilan bog'liq vazifalar o'r in olgan. Shu bilan birga, unda ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqlim bilan bog'liq muammolarni yumshatishning yangicha usuli belgilab berilgan.

Darhaqiqat, ekologik barqarorlik yo'lida "yashil" texnologiyalarni joriy qilish, suvni tejash, yashil hududlarni keskin ko'paytirish,

binosidagi 702 kvadrat metr maydonga quvvati 100 kilovatt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi, shuningdek, universitet talabalar turar joylariga 3200 litrli quyosh suv isitish kollektorlari o'rnatilib, ishga tushirildi.

Prezidentimizning 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida mutasaddi vazirlik tomonidan tasdiqlangan rejaga muvofiq, universitetning 20 ta binosidagi 9533,66 kvadrat metr maydonga quvvati 880 kilovatt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyalari o'rnatilib, hozirgi kunda samarali ishlatilmoqda.

Shuningdek, rejdadan tashqari ravishda universitetning yana 3 ta binosiga quvvati



Ahmed REYMOV, akademik

Mintaqamizdagi juda ko'p ishlab chiqarish va sanoat korxonalarida yuqori bosimda ishlaydigan agregatlar va nasos stansiyalari mavjud, ulardagi quvvatlar bosimidan mexanik harakat oluvchi generatorlardan iborat mini-elektrostansiyalar barpo etish mumkin. Universitetimiz olimlari tomonidan kam xarajat talab etuvchi asinxron generatorlar bo'yicha tadqiqotlar bajarildi va ular katta hajmdagi energiya iste'mol qiladigan korxonalarga o'z ishlarnmalarini taklif qilmoqda. Kelajakda bu yo'nalishdagi harakatlari ijobiy samarasini berishiga ishonch bor.

Davlat dasturidan o'r in olgan ustuvor masalalardan yana biri mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko'chalarda yashilik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirishdir. Mantiqan yondashilsa, yurtimizda mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun uch-to'rt yil oldin mustahkam zamin yaratish boshlangan. Shulardan biri "Yashil makon" umummilliy harakati bo'lib, bunda har bir fuqaro ishtirok etmoqda. Natijada jamiyatimizda ekologik barqarorlik tushunchasi va ekomadaniyatning faol takomillashuvi yuz beryaptiki, odamlarda atrof-muhitga munosabatda ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Universitetimiz jamoasi, ayniqsa, talaba yoshlarimizning shunday ekologik tadbirlardagi faol ishtiroki va tashabbuslari, joylashgan hududimizning tobora yashil qiyofaga kirib borayotgani fikrimizga dalil bo'la oladi.

Joriy yilgi davlat dasturidan o'r in olgan yana bir e'tiborli jihat aholi salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro'ybog'a chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratishga ustuvorlik berilganidir. Universitetda tahsil olayotgan talaba yoshlarning



masalasiga ham ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. 2025-2026-o'quv yilidan boshlab "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash rejalashtirilyapti. Mazkur ta'lim yo'nalishi va mavjud energetika muhandisligi o'quv rejalari va dasturlarini Yevropaning ilg'or oliy ta'lim muassasalari dasturlari bilan transformatsiya qilish jarayonlari ham boshlab yuborilgan. Jumladan, universitetimizda Yevropa Ittifoqi granti asosida moliyalashtiriladigan "DEBE-UZ" loyihasi amalga oshirilmoqda va ustoz professor-o'qituvchilarning faol ishtirok etmoqda. Loyiha doirasida "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" ta'lim yo'nalishi o'quv rejalari va fan dasturlari dunyoning ilg'or texnologiyalariga mutanosib ravishda ishlab chiqiladi, universitet shu yo'nalishdagi zamonaviy laboratoriya bilan ta'minlanadi. Kelajakda ushbu laboratoriya negizida mintaqadagi energetik mutaxassislarni qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazini ochish rejalashtirilgan.

Joriy yilgi davlat dasturida respublika energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik "yashil" energiya stansiyalari barpo etish, hududlarda mikroGESlar tarmog'ini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellari o'rnatishini rag'batlantirish masalasiga ham alohida ustuvorlik berilgan. Ushbu vazifalarga ilmiy jamoatchilikning diqqatini ko'proq jalb etish va olimlar salohiyatidan keng foydalanish ayni muddao.



Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammolarini bartaraf qilish va, asosiysi, aholi salomatligini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilishi ayni muddao.

Davlatimiz rahbari BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasidagi nutqida jahonda yuz bera yotgan iqlim o'zgarishlari asosiy global xavf-xatarga aylanib, geosiyosiy keskinlik kuchayishiga bevosita ta'sir qilayotgani, ayniqsa, kambag'allikni qiyqatirish, ozic-ovqat va energetika xavfsizligi, suv va resurslardan foydalanish muammolari keskinlashayotgani, iqlim muammolari, aholi hayot tarzini yaxshilash va milliy rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishda yangi to'siq'larga uchrayotganini ta'kidlagandi. Shu bilan birga, O'zbekiston global iqlim o'zgarishlari oqibatlarini birgalikda yengib o'tishga amaliy hissa qo'shish va kengaytirish maqsadida bir qancha dolzarb masalalar yechimiga oid tavsiyalar ham bergandi.

2025-yilga "Atrof-muhtini asrash va "yashil iqtisodiyot" yili" deb nom berilgani bejiz emas. Bu qaror yurtimizning barqaror taraqqiyoti, yuzaga kelgan ekologik muammolarni hal qilish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan bir necha omillarga asoslangani bilan muhimdir. Xususan, ekologik jihatdan atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan holatlar ko'paymoqda. Shu bois, atrof-muhit masalasini asosiy xon tartibiga olib chiqish ayni muammolarning bartaraf qilish imkoniyatini yaratib, jamoatchilikda tabiatga bo'lgan xayrixohlikni kuchaytiradi.

Binobarin, "yashil iqtisodiyot" — resurslardan samarali foydalanish, energiya manbalarini yangilash, chiqindilarni kamaytirish va tabiiy boyliklarni saqlab qolish asosiga qurilgan iqtisodiy model. 2025-yilda mazkur yo'nalish mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tishda innovatsiyalarni ko'llash juda muhim. Shu nuqtayi nazardan, joriy yilda ilm-fan va texnologiyani rivojlantirish yanada ustuvor vazifaga aylanib, yangi energiya manbalarini yaratish, mavjud resurslarni yangicha uslubda ishlatishni rag'batlantirish izchil yo'lga qo'yilmoqda.

Atrof-muhtini asrashda har bir fuqaroning mas'uliyati o'r ni bor. 2025-yilda jamoatchilik faolligini oshirish maqsadida turli tadbirlar o'tkazish, ekologik tadbirkorlikni rag'batlantirish, atrof-muhit haqida xabaridorlikni oshirish, yosh avlodga ekologik tarbiya berish diqqat markaziga olib chiqilishi ayni muddao.

Mamlakatimizdagi islotohtlarni, tashabbusli harakatlarni oliy ta'lim tizimida ham joriy etish maqsadida Qoraqalpog' davlat universitetida alohida chora-tadbirlar belgilanib, keng ko'lami ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, universitetning bosh o'quv

KO'ZGU

2025-yil 24-aprel, 83-son

yuz.uznews — yuz_official — yuz.uz_news — yuz

Tashabbus

Qanday qilib deysizmi? Biz ham shu savolga javob topish maqsadida yosh tadbirkor faoliyatiga nazar tashladik. Aslida, bu ish oson ko'ringani bilan ortida mashaqqatli mehnat, o'ziga xos malaka va bilim turgani aniq. Ish bilganga bir tanga, til bilganga ming tanga, deganlaridek qahramonimiz ham avval ishini yaxshi bilib, keyin til o'rgangani bugun unga katta foyda berayotir.

26 yoshli Eldor Ahmedov bugun vohada yetakchi dbirkorlar safidan joy egallab ulgirdi. U o'tgan yili yakuniga qadar axborot tarmog'i orqali xizmatlar ekspor qiymatini 300 ming dollarga yetkazgani aytilmoqda. Joriy yil boshidan shu kunga qadar oyiga 50 ming dollardan ortiq xizmat ko'rsatmoqda.

QASHQADARYOLIK YIGIT AQSHDA LOGISTIKA XIZMATINI YO'LGA QO'YDI

Eldor maktabni bitirgach, tengdoshlari qatori to'rt-besh so'm pul topish ilinijida ish qidirishga tushmadi. Aksincha, o'qishni davom ettirib, bilimini boyitdi. Toshkent shahridagi oliy o'quv yurtlaridan birida iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha o'qidi. O'qish davomida, eng avvalo, ingliz tilini puxta o'zlashtirishga kirishdi. Yuqori kursga o'tgach, o'qishdan bo'sh paytlari ishlab, daromad topish payiga tushdi. Innovatsion texnologiyalarga qiziqishi yuqoriligi bois, shu sohada ishga joylashib, darsdan so'ng ishlaydigan bo'ldi. Turli loyihalarni tayyorlashda ishtirok etib, tajribasini oshirib bordi. Keyinchalik universitetni tamomlagach, po'yxatdagi xorijiy korxonalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritayotgan tashkilotlardan biriga ishga kirdi. Yangi joyda internet orqali xizmat ko'rsatib, chet eldan pul ishlash mumkinligini o'rgandi. Sohada tajriba to'plab, yaxshigina daromadli ham bo'ldi. Shundan so'ng o'zi tug'ilib o'sgan Qarshi shahriga qaytdi.

Bu yerda o'zi rejalashtirganidek axborot texnologiyalari sohasi bo'yicha yangi loyiha ustida ishladi. 2024-yil boshida mas'uliyati cheklangan jamiyat ochdi. Uning maqsadi Qarshida turib internet orqali AQSHda logistika xizmatini ko'rsatish edi. Avvalgi tajribasiga tayanib, takvakkal bu yo'nalishga qo'l urgani tufayli dastlab ish oson kechmadi. Ilk kunlarda hatto bir o'zi ishlashiga to'g'ri keldi.

— Boshida shu yerda turib amerikaliklar bilan ishlashimga ko'pchilik ishonmagandi. Shu bois, ayrim yoshlarni ishga taklif qilganimda rad javobini bergandi. Bir oydan oshiq vaqt davomida bir o'zim uyd o'tirib ishladim. Asta-sekin tarmoqni kengaytirga boshlagach, yordamchilarga ehtiyoj seza boshladim. Chet tilini biladigan, iqtidorli 2-3 yoshni yonimga oldim. Shundan so'ng yo'nalishimiz tobora kengayib, xizmatimiz hajmi ortdi. Ishchilar ham ko'paydi. Hozir 40 yoshning doimiy bandligini ta'minlab, har biriga oylik maosh berib kelyapmiz, — deydi Eldor Ahmedov. — Biz bu yerda ro'yxatdan o'tgan bo'lsak-da, ishimiz AQSHda. Asosan, logistika xizmatlarini bajaramiz. Jumladan, AQSH kompaniyasi bilan hamkorlik shartnomamiz mavjud. U yerdagi yuq mashinalariga kerakli ko'pgina tizimli ishlarga ko'maklashib, bajargan vazifamizga qarab daromad olamiz.

Yosh tadbirkor ayni paytda 40 yigit-qizni ish bilan ta'minlashdan tashqari, yana 20 ga yaqin yoshning uyda turib, daromad topishiga sharoit yaratgan. Xodimlari orasida maktab o'quvchilari ham bor. Misol uchun, Mushitariy Eshnazarova maktabning yuqori sinfida tahsil oladi. U yerdagi kompyuter orqali buyurtma bajarib, oyiga 700 dollar maosh oladi.

— Bajaratidigan ishimizning qiyinchiligi yo'q. Faqat chet tilini yaxshi bilib, buyurtmani o'z vaqtda qabul qilib, yo'nalishga qarab bajarsak bo'lgani. Hozir uyd



turib yaxshi maosh olyapman. Bu bilan ota-onamga nafim tegaypti. Bundan tashqari, qo'shimcha o'qish, kerakli adabiyotlarni sotib olishga qiyinlamayman. Qulay tomoni shuki, bu ish maktabda bilim olishimga xalal bermaydi. AQSH vaqti biznikidan ancha farq qilgani uchun ularda asosiy ish jarayoni bizdagi kechki paytga to'g'ri keladi, — deydi Mushitariy. — Avvallari uyd o'tirib pul topish mumkinligi haqida ehsitman ishonmasdim. Shunchaki gap bo'lsa kerak deb o'ylardim. Lekin buning ham iloji bor ekan. O'zim amalda isbotini ko'ryapman. Bu ishda chet tilini bilganim ancha qo'l keldi.

Eldor bilan ishlab, yuqori maosh olayotgan yoshlardan yana biri — Javohir To'xtayev. Uning ishlayotganiga 6 oydan oshib qoldi. Hozir oylik maoshi 1000 dollardan oshadi. Ayni paytda Qarshi shahridagi oliy ta'lim muassasalaridan birining talabasi. To'lov-shartnoma asosida o'qiyotgani unga muammo tug'dimaydi. Atigi bir oylik maoshi bilan kontrakt pulini to'lab, oilasiga ham katta yordam bermoqda.

26 yoshli Eldor Ahmedov bugun vohada yetakchi tadbirkorlar safidan joy egallab ulgirdi. U o'tgan yili yakuniga qadar axborot tarmog'i orqali xizmatlar ekspor qiymatini 300 ming dollarga yetkazgani aytilmoqda. Joriy yil boshidan shu kunga qadar oyiga 50 ming dollardan ortiq xizmat ko'rsatmoqda. Yil yakuniga qadar esa jami ekspor qiymatini 600 ming dollardan oshirishni maqsad qilgan. Shuningdek, kelgusida AQSHning o'zida ham yangi korxona ochib, tarmog'ini kengaytirish ustida ishlamoqda. Bu esa qo'shimcha ish o'r in yaratishni taqozo etadi.

Mutasaddilarning aytishicha, keyingi yillarda Qashqadaryoda IT xizmatlari sohasi bosqichma-bosqich rivojlanayotganiga. Jumladan, o'tgan yili kompyuter dasturlash, raqamlashtirish, raqamli ta'lim, mahalliy va ekspor xizmatlari ko'rsatish bo'yicha "Bir million

SUN'IY INTELEKT O'ZBEK TILINI GLOBAL MAYDONGA OLIB CHIQUAYOTIR



Til — xalqning boyligi, madaniyati, tarixi va kelajagi. Asrlar davomida shoir va mutafakkirlar o'zbek tilini yuksaltirishga harakat qilgan bo'lsa, bugun bu vazifani texnologiyalar ham qo'llab-quvvatlamogda. Sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing — NLP) sohasidagi yutuqlar ona tilimizning jahon miqyosida rivojlanishiga katta turtki beryapti. Shu paytgacha tilshunoslar va filologlar til taraqqiyoti bilan shug'ullangan bo'lsa, endi dasturchilar va sun'iy intellekt tadqiqotchilari ham kompyuter lingvistikasi orqali ayni jarayonga hissa qo'shayotir. Prezidentimizning 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarorida bu haqida alohida to'xtalib o'tilgan.

O'zbek tiliga uzoq vaqt texnologik jihatdan kam resursli til sifatida qarab kelindi. Dunyodagi yirik sun'iy intellekt tizimlari, jumladan, mavjud til texnologiyalari o'zbek tilini tushunish, qayta ishlash va tarjima qilishda cheklangan imkoniyatga ega edi. Ammo so'nggi yillarda bu holat nafaqat xalqaro tadqiqot loyihalari, balki mahalliy ilmiy izlanishlar tufayli tubdan o'zgarogqda. Bugun O'zbekistonda ishlab chiqilgan yangi fundamental NLP va sun'iy intellekt modellari, katta hajmdagi lingvistik resurslar va ilmiy ishlarni milliy tilni global maydonga olib chiqayotir.

Til texnologiyalarining rivojlanishida BERTbek va UzUDT kabi yirik loyihalar muhim o'r in egallaydi. BERTbek Google kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, transformer texnologiyasi asosida yaratilgan o'zbek tili uchun birinchi sun'iy intellekt modellardan bo'lib, undan matni mantiqan tushunish, sentiment tahlili, avtomatik tarjima va hujjatlarni tasniflash kabi jarayonlarda foydalanish mumkin. Bu model, ayniqsa, davlat idoralari, tadqiqot institutlari va texnologik kompaniyalar uchun katta imkoniyatlar ochish arafasida turibdi.

Darhaqiqat, Innovatsion rivojlanish agentligi va Jahon banki ko'magida O'zbekiston Milliy universitetining amaliy matematika va intellektual texnologiyalar fakulteti huzurida tashkil etilgan "UzUDT: o'zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlash uchun universal bog'liqlik daraxti korpusi va uning semantik tahlili" ilmiy grant loyihasi 2022-yildan beri faoliyat yuritib kelmogda.

Mazkur loyiha o'zbek tilini kam resursli tillar qatoridan ko'p resursli tillar guruhiga qo'shish yo'lida

muhim qadamlardan biri bo'ldi. Ayni loyiha doirasida O'zbekiston Milliy universiteti hamda Yevropaning kompyuter ilmlari sohasidagi yetakchi hamkor universitetlari olimlari tomonidan katta hajmdagi sintaktik va morfologik ma'lumotlar bazasi yaratildi. Bu esa sun'iy intellektga o'zbek tilini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Avvallari bunday til resurslari bo'lmagani sababli xalqaro tadqiqotchilar uchun o'zbek tilini o'rganish murakkab jarayon edi. Bugun esa UzUDT jahon ilmiy maydonida til texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha eng muhim resurslardan biriga aylandi. O'zbek tilining kompyuter lingvistikasi resurslarini oshirish va tilimizning sun'iy intellektga integratsiyalashuvi faqat texnologiya rivoji uchun emas, balki bo'y madaniyatimizni saqlash va butun dunyoga tanitish uchun ham muhim. Biz ilmiy va texnologik jihatdan hali ko'p ish qilishimiz kerak. Lekin hozirgi natijalarga ko'ra, o'zbek tili dunyodagi eng rivojlangan sun'iy intellekt tizimlarida o'zining munosib o'r niga ega bo'lishi kechiktirib bo'lmas vazifadir.

Ilmiy ishlarnalar natijasida o'zbek tili Google Translate, ChatGPT kabi sun'iy intellekt asosida ishlovchi platformalarga integratsiya qilina boshladi. Bundan bir necha yil oldin o'zbek tilidan boshqa strategik ahamiyatga ega tillarga va aksincha avtomatik tarjima sifati juda past edi. Bugun esa sun'iy intellekt orqali o'zbek tilidagi matnlarni nafaqat to'g'ri tarjima qilish, balki mazmun jihatidan chuqur tahlil etish ham mumkin. Bu o'zgarishlar nafaqat ilmiy jamoatchilik, balki biznes va davlat sektori uchun ham katta ahamiyat

26 yoshli Eldor Ahmedov bugun vohada yetakchi dbirkorlar safidan joy egallab ulgirdi. U o'tgan yili yakuniga qadar axborot tarmog'i orqali xizmatlar ekspor qiymatini 300 ming dollarga yetkazgani aytilmoqda. Joriy yil boshidan shu kunga qadar oyiga 50 ming dollardan ortiq xizmat ko'rsatmoqda.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



dasturchi" loyihasi doirasida 47 ming 165 yigit-qiz o'qishga jalb qilingan. 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, IT park rezidentlari soni 31, xodimlari soni esa 163 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, o'tgan yil yakunida rezidentlar soni 65, xodimlar soni 511 nafarga yetgan.

Shuningdek, o'tgan yil 1-yanvar holati bo'yicha mahalliy xizmatlar qiymati 13,6 milliard so'mni, ekspor xizmatlariniki esa 510 ming dollarni tashkil qilgan. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bu ko'rsatkich mos ravishda 65,6 milliard so'm va 2,4 million dollar bo'lgan.

Shu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga imkoniyat yaratish maqsadida o'tgan yili Qarshi shahri "O'zbektelekom" AK tarmog'iga qarashli binoning 4-qavatidagi foydalanilmay turgan 824 metr kvadrat joyga mahalliy byudjet hisobidan 5,5 milliard so'm investitsiya kiritilgan. Natijada zamonaviy tipdagi Masofaviy xizmatlar ekspor markazi tashkil qilindi. Unda IT park rezidentlari ekspor faoliyati bilan shug'ullanishi uchun 10 ta lot, 3 ta o'quv xona va 1 ta BPO (Business process optimisation) xonasi mavjud bo'lib, markaz uzluksiz internet va elektr bilan ta'minlandi.

Mas'ullar ma'lumotiga ko'ra, yaratilgan sharoit va imtiyozlar natijasida joriy yil yakuniga qadar viloyatda aynan xizmatlar eksporti qiymati 3 million dollardan oshadi.

Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Mirsaid ARIPOV, fizika-matematika fanlari doktori, professor

etadi. Endi kompaniyalar o'zbek tilidagi sun'iy intellekt modellari yordamida avtomatlashtirilgan xizmatlar, mijozlarga javob beruvchi chatbotlar va hujjatlarni avtomatik qayta ishlash tizimlarini yaratish imkoniyatiga ega. Bu esa axborot texnologiyalari rivojlanayotgan O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt sanoatini shakllantirishga katta yordam beradi.

Kelajakda sun'iy intellekt o'zbek tilining yanada rivojlanishiga xizmat qilishi aniq. Hozir sohadaq eng katta muammolardan biri tilimizga moslashtirilgan ovoz bilan ishlaydigan tizimlarning yetarlicha rivojlanmagani. Bugun ingliz, xitoy, fransuz tillari uchun mavjud ovozi yordamchilar (Siri, Google Assistant, Alexa) o'zbek tilida hali to'liq ishlamaydi. Ammo ilmiy tadqiqotlar orasida yurgan inson sifatida kelgusi yillarda o'zbek tiliga moslashtirilgan ovozli tizimlar ishlab chiqilishiga ishonchim komil. Shuningdek, ilmiy va tijoriy loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali o'zbek tilining sun'iy intellekt tizimida qo'llanishini kuchaytirish mumkin. Bu borada sun'iy intellekt sohasiga ko'proq sarmoya kiritish va texnologik startaplarni rag'batlantirish dasturlari amalga oshirilishi zarur.

Bugun biz katta davr boshida turibmiz: sun'iy intellekt tilimizni global miqyosda tanitish uchun imkoniyat yaratmogda. Ko'z o'ngimizda o'zbek tili faqat tarixiy va madaniy meros emas, balki raqamli texnologiyalar orqali kelajakda yo'l oluvchi qudratli vositaga aylanmogda. Bundan-da yuqori natijalarga erishish esa ko'proq yosh avlodga bog'liq.

Shoir qalbi quvunchga to'lganida yorug' misralar bitadi. Shodligini, bugunidan rizolik kayfiyatini boshqalarga ham ulasha oladi. Ijodkor nimadan, qanday quvunch topadi? Nelar uni qalam tebratishga undaydi? Bu savollarga javob topaman, desangiz ming turli sharh, yuz turfa fikr maydonga chiqaveradi. Ammo asrlar qa'ridan kelayotgan bir haqiqat bor: ijodkor, umuman, ko'ngil odami vatanida tinch-xotirjam yashasa, elning quvunchli kunlariga shohid bo'lsa, qalbi ilhomga to'ladi.



Xurshida VAHOBJON qizi,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Andijon viloyati bo'limi rahbari

Mirzo Bobur davrida vodiyning markazi bo'lgan Andijon kundan kunga chiroy ochib, obod, mafunkor hududga aylanib bormoqda. Ayniqsa, ayni bahor faslida nafaqat qizg'aldoqlarga burkangan qir-adirlari, balki shahar va tumanlar markazlari ham go'zal manzarali daraxtlar, chaman gullagan pavlovniyalar, landschaft dizaynida naqshinkor ko'rpadek to'shalgan noyob gullar bilan o'zgarcha mafunkorlik, orombaxshlik kasb etmoqda.

Davlatimiz rahbarining viloyatimizga tashrifi xalq sayillari, ma'naviyat, adabiyot bayramlariga aylanib ketdi. Prezidentimiz yangi korxonalar faoliyati, sanoat, energetika,

shaharsozlik, qurilish va bunyodkorlik, xalqimiz turmush sharoitining yaxshilanishi va boshqa sohalaradagi ishlar bilan tanishdi. Andijon tajribasi sifatida boshqa viloyatlar rahbarlariga ham tavsiya etilgan islohotlar, sanoat korxonalari faoliyati, bunyodkorlik ishlari nafaqat tadbirkorlar, ishbilarmonlar, balki barchaning qalbida katta qiziqish, faxr-iftixor tuyg'ularini uyg'otdi.

Xalqning roziligi, quvunchi jamiyatning atom energiyasi desak, mubolag'a bo'lmaydi. U hech qachon tugamaydi. Bir me'yorda barqaror quvvat beradi. Bunday quvvatga ega jamiyat a'zolari qanot chiqarib uchishga qodir shijoat ila olg'a intiladi.

Darvoqe, uchish haqida. Prezidentimiz dastlab Andijon aeroportidagi modernizatsiyalash ishlari bilan tanishdi. 1978-yilda qurilgan ushbu aeroport uchish-qa'nish yo'lagining yuk ko'tarish imkoniyati pastligi, zamonaviy yoritish tizimlari yo'qligi, hozirgi xalqaro talablarga mos kelmay qolgani tufayli faoliyati cheklangandi. Chet ellik sayyohlar va boshqa yo'lovchilar Farg'ona va Namangan aeroportlari orqali Andijonga kelib ketayotgandi.

Bugun rekonstruksiya ishlarining birinchi bosqichi bitkazilib, uzunligi 3300, kengligi 60 metr bo'lgan yangi uchish-qa'nish yo'lagi, yurish yo'lagi va samolyotlar to'xtash joyi qurildi. Drenaj tizimi yangilanib, yer osti suvi qochirildi.

Ikkinchi yurish yo'lagi qurilishi davom ettirilib, IKAO CAT-II toifasidagi radar, meteorologiya va yoritish uskunalarini o'rnatish ishlari yakuniga yetkazilsa, Boeing, Airbus rumidagi yirik samolyotlarni ham noqulay ob-havo sharoiti va tungi vaqtlarda qabul qilish imkoni vujudga keladi hamda parvozlar sonini o'n barobargacha oshirish mumkin.

Keyingi bosqichda yo'lovchi terminalini yangidan qurish orqali yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish quvvati uch barobar, parvozlar soni esa yiliga 584 tadan 3700 taga yetkaziladi. Yaqinda faoliyati tiklangan aeroport hozircha Toshkent va Andijon shaharlari o'rtasida

qatnayotgan bo'lsa, modernizatsiya ishlari to'liq yakuniga yetgach, boshqa mahalliy hamda xalqaro qatnovlar yo'lga qo'yiladi. Bu esa Bobur yurtida sayyohlik rivojlanishi, yanada ko'p chet el investori jalb etilishi uchun ham manfaatlidir. Shular haqida o'ylangani sari odamning yuragi ajib tuyg'ular og'ushida qoladi. O'ylar uzoq o'tmish, yaqin kelajak orasida kezinadi.

Kechagiday esimda: 2024-yil 15-16-fevral kunlari davlatimiz rahbari Andijon viloyatiga tashrifi davomida qator loyihalar bilan tanishgan, viloyatda sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, qurilish, bunyodkorlik ishlari ko'lamini



kengaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish haqida aniq ko'rsatmalar bergan edi. Maqsad esa aholi bandligini ta'minlash, turmush sharoitini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish, qisqasi, xalqni rozi qilish!

O'tgan vaqt mobaynida bu borada keng ko'lamli ishlar bajarildi va sezilarli natijalarga erishildi. Xususan, 2024-yili 380 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. To'qimachilik, sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligi sohalarida

32 mingdan ziyod yangi ish o'rni ochildi. Albatto, ish bilan ta'minlanishi aholining turmush sharoiti yaxshilanishi uchun muhim omil.

Davlatimiz rahbari Andijon viloyatini kompleks rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda odamlarning kundalik hayotidagi ijobiy o'zgarishlar yaqqol namoyon bo'layotgani, islohotlar ijrosiga astoydil kirishilayotgani, yangi O'zbekiston shukhi viloyatning har bir mahallasiga, har bir xonadoniga kirib ulguriganini alohida ta'kidladi.

Andijon O'zbekistonning bir foiz yerida o'n foiz aholi yashaydigan eng zich hududidir.

Bobur xotirasini abadiylashtirish maqsadida Yangi Andijon shaharchasiga "Bobur shahri" deb nom berish taklifini bildirganida qalblarni hayajon, faxr-iftixor tuyg'ulari qamrab oldi.

"Hech shubhasiz, qomusiy bilim va tafakkur egasi bo'lgan bu mumtoz ajdodimizning birgina "Boburnoma" asari uchun ham uning sharafiga mana shunday go'zal shaharni bunyod etsak arziydi", dedi Prezidentimiz.

Bobur Mirzo tug'ilib o'sgan tabarruk zaminda uning dilida qolgan armonlar ro'yogga chiqmoqda. Zahiriddin Muhammad Boburning mahobatli monumentini haqqoniy aks ettirish bo'yicha Prezidentimiz o'z fikrlarini bildirdi. Atrofni boburiylar tomonidan Hind diyorida darostlagan, asrlar davomida insoniyat ahlini hayratga, hayajonga solib kelayotgan me'moriy obidalarining andozasi o'laroq majmua yaratish rejasi kelgusida bu shaharning olamshumul shuhrat qozonishidan darak. Chunki Bobur shahri o'tmish — ulug' ajdodlarimizning boqiy madaniy merosi va bugunimiz o'rtasida ko'prik bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz nutqlaridan birida bejiz xalqparvar shoir Cho'lponning "Adabiyot yashasa — millat yashar" degan so'zlarini tilga olmagan. Poytaxtimizning eng gavjum, go'zal go'shasi "Adiblar xiyoboni"ga aylantirildi. Mumtoz va zamonaviy adabiyot vakillariga qaratilayotgan yuksak e'tiborning uzviy davomi sifatida Bobur shahri barpo etilishi, kelgusida iste'dodlarni, ilm-fan, madaniyat, sport sohalarining yetuk vakillarini yetishtirishga xizmat qiladigan aqlli shaharga aylantirilishi Uchinchi Renessansga qo'yilgan poydevorlardan biridir.

— Biz ulug' tarixiy voqeaga guvoh bo'ldik. Tasavvurimda o'z shaxsi, boy ilmiy-ma'naviy, adabiy merosi, bunyodkorlik ishlari bilan dunyoga dovruq taratgan Bobur Mirzoning o'zidek olamshumul, ulug'vor shahar bo'y ko'rsatdi. Bobur ekspeditsiyasi safida ellikdan ziyod shaharga borgan bo'lsak, har gal safar chog'ida u zotining yurt sog'inchi iztiroblarini yuragimdan his qilganman, — deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, adib Qamchibek Kenja. — Bobur

Mirzo poytaxtni Dehliidan Agraga ko'chirib, u yerni obod qilgan. O'z davlati poytaxtida Jamna daryosining bir tomonida "Bog'i orom"ni barpo etgan. Daryoning shabadasini urib turadigan, serdaraxt, gullarga burkangan shu maskanda podshoh oilasi bilan yashagan. Inshootning yer osti qismida qabulxona bo'lib, issiq mamlakat sharoitida elchilarni o'sha joyda qabul qilgan. Jamnaning ikkinchi tomonida esa dunyodagi yetti mo'jizaning biri bo'lgan "Tojmahal" qo'r to'kib turibdi. Davlatimiz rahbarining natqini tinglar ekanman, beixtiyor ana shu tarixiy obidalar yurtimizda qayta jonlanayotgani ko'z oldimga keldi.

Davlatimiz rahbari yangi bog'da hunarmandchilik, badiiy va amaliy san'at ko'rgazmalarini ko'zdan kechirdi. Ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyot, iste'dod homiysi bo'lgan buyuk Bobur shahrida kelgusida har yili rassomlar, xalq amaliy san'ati ustalarining festivallarini o'tkazish, tanikli shoirlarning she'rlari yangrab turadigan anjumanlar tashkil etish ayni muddao ekani haqida fikr bildirdi.

— Mamlakatimiz rahbarining barcha islohoti Bobur Mirzo kabi ulug' ajdodlarimizning orzulari, hayotiy idealari, ulug'vor maqsadlariga hamohang ekani, bir umr vatan sog'inchi bilan yashagan buyuk ajdodimizning o'z ona yurtiga ruan qatnagani haqidagi so'zlari qalblarimiz tubidagi istaklarga hamohangdir, — deydi Bobur nomidagi xalqaro fond rahbari Zokirjon Mashrabov. — Bobur shahrini eng go'zal, zamonaviy shaharga, milliy qadriyatlardan so'zlovchi ma'naviyat maskaniga, ta'lim, ilm-fan, ilhom va ibrat shahriga, turizm va madaniyat markaziga aylantirish kabi ulug' rejalar qatorida fondimiz faoliyati, qilgan ishlarimiz tilga olingani katta e'tirof va ishonchdir. Buning uchun cheksiz minnatdorman.

Prezidentimiz orzu qilganidek, adolatli shoh, mard, jasur, tadbirkor, bunyodkor shaxs nomi bilan atalgan bu shahar yurtimiz shuhratini olamga yovaydigan haqiqiy boburiylarga beshik bo'lishi, shonli tariximiz va kelajagimiz o'rtasida ma'naviy ko'prik vazifasini o'tashi shubhasiz.

Hanuz o'zini anglashda davom etayotgan odamzod o'zi ishtirokchisi bo'lgan muammolarning yuzaga kelish sabablarini o'zidan emas, tashqaridan qidirishga odatlangandek tasavvur hosil qiladi. Masalan, avtomobil boshqarib, shahar ko'chalarida tirbandlikda qolib ketsak, birdan mashina ko'payib ketganidan yozg'ira boshlaymiz. Vaholanki, o'zimiz ham mana shu tirbandlikning orasidamiz va ishtirokchilaridan birimiz. Yoki ekologiya yomonlashib ketayotgani haqida gap ochilsa, yana aholi soni tez ko'payayotgani haqida gapiramiz. Aslida, shu odamlar qatorida o'zimiz borligimizni unutamiz go'yo.

Rosti, shu jarayonlarni kuzatarkanman, aksariyatimiz ayni o'zimizdan emas, boshqalardan izlashimiz ayon bo'lib qoladi. Bu holatning nomi fanda nima deb atalishini bilmadimu, unga odatlanib qolayotganlar borgan sari ko'payayotgani rost.

Shu o'rinda qiziq bir voqea esimga tushdi. To'rt-besh yil oldin odamlar mahallamizning bir chetiga yashirinch qchiindi tashlashni odat qildi. Mas'ullar o'z vaqtida e'tibor beravermagach, mahalla faollari bu hududni tozalash harakatiga tushdi. 5-6 nafar yosh belkurak, qoplamni olib, chiqindini yig'a boshladik. Yoshi kattaroq ikki-uch mahalladosh "haybarakalla" deb turadigan bo'ldi. Bir oz o'tib zerikishdi shekilli,

Q

Odamlar orasida

HAYOTDAN HIKMAT

QIDIRIB YASHASAK...

yaqindagi do'kondan pista olib kelib, shuni chaqib, ermak qila boshladi. Chiqindilarni qopga joylab bo'lib, ularning oldiga kelib e'tibor bersak, pista po'chog'idan kichkina uyum hosil qilibdi. Kelganimizni ko'rib "Shuni ham supurib olinglar endi birato'la", deb buyruq bergan bo'ldi. Yosh bo'lsak ham shu payt gap demoqqa gap zoye deb tilimizni tishladik. Nega buni esladim? Aksariyatimiz tabiatga, odamlarga yordam beraman, deb muammoini battar murakkablashtirib yuboramiz. Afsuski, bunday holat kundalik turmushimizda ko'p uchraydi.

Ilm-fan muxlisi bo'lgan bobom bir safar dalada aylanib yurganimizda ayrgandi: "Dunyo qiziq-da. Ekinlarni 1-2 ta zararkunandadan asraymiz deb ularga qo'shib poyalar ichida uchib yurgan asalari kabi foydali hasharotlarning ham boshlarga yetamiz. Bu qosh qo'yaman deb ko'z chiqarish emasmi?".

O'ylab qarasak, odamlarga yordam beraman deb zarar yetkazib qo'yish hayotimizga juda chuqur singib ketgan jarayon. Masalan, avtomobilni ixtiro qilgan

olim olis masofani yaqin qilgan, lekin aynan undan chiqayotgan zararli gaz bir kun kelib, ekologiya uchun jiddiy xavfga aylanishi mumkinligi haqida o'ylaganmikan? O'qotar qurollarni yaratgan ixtirochi ularidan payti yetib, yovuz niyatda foydalanish mumkinligini tuyganmikan?

Aslida, sanoatda qo'llashga mo'ljallangan porox, keyinchalik atom yaratgan olimlar oradan vaqt o'tib, uni kashf etganidan qattiq pushaymon bo'lgani manbalarda qayd etilgan. Bunday "ixtiro"lar kundalik hayotimizda ham uchraydi. Aytaylik, farzandlarimizni ortiqcha erkalatish, boshqa bolalardan himoya qilish, yonini olishga urinaveramiz. Biroq shu tufayli ulami o'ziga ishonmaydigan, har doim

atrofdagilardan madad kutib yashaydigan jur'atsizga aylantirib qo'yganimizni vaqtida anglamay qolamiz. To'g'ri, suvagi qotadi deb bolani shunday muhitga tashlab qo'yish ham xato, biroq ota-bobolarimiz tarbiyada hamisha o'ziga ishonch tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor berib kelgan.

Yaqinda metroda tiqilinch payti ikki yo'lovchi tortishib qolganiga guvoh bo'ldim. Bu holat birining ikkinchisiga joy bermaganidan kelib chiqdi chog'i, yoshrog'i: "Bu — metro, o'z nomi bilan jamoat transporti. Ana, xohlasangiz, ko'chaga chiqib, taksiida yurib bu yerda nasihat qilmasdan" deb do'q urdi. Jamoat transportida joy so'rash ko'pchilikka

erish tuyularkan, nazarimda. Bu e'tirozni qo'llab-quvvatlaganlar ham topila qoldi. Natijada esa e'tiroz sohibi to'g'ri ish qildim deb o'ylangani aniq. Demak, u keyingi gal boshqa birov bilan shu masalada tortishib qolsa, yana shunday deyishi aniq. Ayrimlar bu ishini yana ma'qullaydi. Uning xayoliga jamoatchilik oldida o'zimga o'xshagan bir odamni mulzam qilyapman, insoniylik qoidalarini buzaypman, degan fikr sira kelmaydigan bo'lib qoladi. Nimaga? Chunki uning bu odatini atrofidagilar ma'qullayapti. Demak, hammasi to'g'ri deb hisoblaydi.

Eng xavotirlisi, bu kabi holat yuqumli bo'ladi. Masalan, hozir jahldor o'qituvchisining tanbehini videoqa olib, uni ijtimoiy tarmoqlarga

chiqarib yuboradiganlar ko'paydi. To'g'ri, o'qituvchining o'quvchiga qo'pol muomala qilishi, haqoratlashi mutlaqo noto'g'ri. Bu yerda qonun bor, jamoatchilik nazorati ishlashi kerak. Ayni damda bu kabi o'quvchilarni olqishlovchilar oz emasligi bor gap. Lekin shularni deb o'qituvchi haqida salbiy taassurotni kuchaytirayotganlar kammi?!

Shularni qoralar ekanman, ijtimoiy tarmoqlarda bir haydovchi yo'llardagi 52 ta radarni pnevmatik qurol bilan ishdan chiqargani haqida xabarlar tarqaldi. Bu xatti-harakati bilan u uchay haydovchilarga yaxshi ko'rinaman, ularning olqishini olaman deb o'ylagandir balki. Biroq shu ishni qilayotgan paytda bosar-tusarini bilmaydigan ayrim haydovchilar qanchadan-qancha odamning umriga zomin bo'lishi mumkinligi haqida o'ylaganmikan? G'afur G'ulomning bunday satrlari bor:

"Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek, Diana ma'badin buzmoq shart emas".

Fanda "Gerostrat kompleksi" degan ibora qo'llaniladi. Bu nom qoldirish, tanilish uchun ibodatxonaga o't qo'ygan odamning xarakteridan kelib chiqqan. Hozir bu ibora har qanday yo'l, hatto, so'kish, haqorat qilish, jismoniy kuch ishlatish bilan bo'lsa-da tanilish, nom qozonishga muhtalo bo'lganlarga nisbatan qo'llanadi. Ular o'z xatti-harakati jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishi uchun yolg'omon gapirish, do'q urib qo'rqtish, zo'ravonlikdan ham qaytmaydi. Shu ma'noda, ko'cha-ko'yda, qo'limizdan tushmaydigan turli elektron vositalarda aks etayotgan salbiy manzaralar odamiylik mulki bo'lgan qadriyatlarimiz, insoniy munosabatlarnimizni vayron qilishidan xavotirlanishga arziydi.

Jonibek ALIJONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri